
Visol ko'chasidagi aholi murojaatlari ijobiy hal etiladi

"Zo'r TV" telekanalining "Bu kun" informasion dasturida "Visol" ko'chasi asfalt qilinmagani haqidagi lavha efirga berildi.

Ma'lumki, hududlarda bo'lgani kabi shahrimizning har bir mahallasida, ko'chasida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Ko'chalar asfalt bo'lib, xonadonlarga toza ichimlik suvi kirib bormoqda.

Lavhada keltirilgan fuqarolar murojaati bo'yicha ham bir qator ishlar belgilab olingan. Bosqichma-bosqich ushbu ko'cha ham asfaltlanib, aholiga qulaylik yaratiladi.

2023-10-12 17:21:02